



O'QUVCHILARDA BADIY OBRAZ YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH (MAQOLA, ESSE, HIKOYA YOZISH ASOSIDA)

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Ismatova Muhabbat Alibek qizi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori (DSc) Ozoda Anorqulova

ANNOTATSIYA: O'quvchilarning yozma ijodiyot jarayonida, xususan maqola, esse va hikoya yozish asosida badiiy obraz yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirish jarayoni.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, maqola, esse, hikoya, ta'lim, natijalar, tahlillar, ko'nikmalar

АННОТАЦИЯ O'quvchilarning yozma ijodiyot jarayonida, xususan maqola, esse va hikoya yozish asosida badiiy obraz yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirish jarayoni.

Ключевые слова: художественный образ, статья, эссе, рассказ, образование, результаты, анализ, навыки

ABSTRACT The process of developing and forming students' skills in creating artistic images in the process of written creativity, in particular, in writing articles, essays, and stories.

Keywords: artistic image, article, essay, story, education, results, analysis, skills

Badiiy obraz yaratish – fikr, his-tuyg'u va tasavvurlarni so'z orqali jonlantirish san'ati bo'lib, o'quvchilarda chuqur va kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim



ahamiyatga ega. Shu sababli, maqola, esse va hikoya yozish asosida badiiy obraz yaratish ko'nikmasini shakllantirish masalasi dolzarb va o'rganilishi zarur bo'lgan mavzudir.

Dolzarblikning bir nechta sabablari mavjud. Jumladan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish – badiiy asar yaratish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, tasavvurlarini boyitadi va ularni ijodiy yondashishga o'rgatadi. Qolaversa, til ko'nikmalarini mustahkamlashda, ya'ni, maqola, esse va hikoya yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravon va mazmunli ifodalashni o'rganadilar. Bundan tashqari, shaxsiy fikrni shakllantirish ya'ni badiiy obraz yaratishda har bir o'quvchi o'z dunyoqarashini, his-tuyg'ularini, qarashlarini samimiy va o'ziga xos tarzda ifodalaydi.

Darslarda badiiy yozish ko'nikmalarini doimiy rivojlantirish o'quvchilarni yozma nutqda mustaqillikka va mustahkam bilimga yetaklaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Ko'rishiniz mumkinki, madaniy merosga hurmat bunda toshqin fikrlar, milliy ruh, an'analar badiiy matnlarda aks etadi, shu tariqa milliy ong va madaniyatni saqlash va targ'ib qilish kuchayadi.

Shunday qilib, maqola, esse hamda hikoya yozish asosida o'quvchilarda badiiy obraz yaratish ko'nikmasini shakllantirish nafaqat ularning til va ijodiy salohiyatini oshirishga, balki ularni zamonaviy, erkin fikr yurita oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa har qanday ta'lim tizimida dolzarb va ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarda badiiy obraz yaratish ko'nikmasini (maqola, esse, hikoya yozish orqali) shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:



– Badiiy obraz tushunchasini aniqlash va o‘rganish. O‘quvchilarga badiiy obraz va uning elementlarini tushuntirish, uning yozma asarlardagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish.

– Maqola, esse va hikoya janrlarini tahlil qilish. Har bir janrda badiiy obraz yaratish uslublari va metodlarini ko‘rsatish, ularning farqlari va umumiyliklarini aniqlash.

– Ijodiy yozish metodikasini ishlab chiqish. O‘quvchilarda obraz yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, metodlar va topshiriqlarni ishlab chiqish.

– Yozma nutq madaniyatini oshirish. O‘quvchilarning yozma fikrlashini chuqurlashtirish, fikrlarni aniq va badiiy ifodalash qobiliyatini shakllantirish.

– Amaliy natijalarni tahlil qilish va taqdim etish. Tadqiqot davomida olingan natijalarni baholash, samarali usullar bo‘yicha tavsiyalar berish.

Ushbu maqsad va vazifalar tadqiqotning nazariy hamda amaliy tomonlarini uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarda badiiy yozishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

– Badiiy obraz tushunchasini aniqlash. Tadqiqot davomida badiiy obraz va uning xususiyatlari, o‘ziga xosligi tizimli ravishda o‘rganiladi hamda amaliy misollar orqali tushuntiriladi.

– Maqola, esse va hikoya yozish metodlarini tahlil qilish. O‘quvchilarda badiiy obraz yaratish jarayonida ushbu yozma janrlarning foydalanish imkoniyatlari va ularning o‘rni aniqlanadi.

– O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash. Yozish ko‘nikmalarini oshirishda qanday metod va texnikalar samarali ekanligi o‘rganiladi, ular orqali badiiy obraz yaratish qobiliyati shakllantiriladi.



– Ijodiy fikrlash va fikrlarni ifodalash qobiliyatini rivojlantirish. O‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini badiiy shaklda ifodalashga yordam beradigan pedagogik vositalar va mashg‘ulotlar ishlab chiqiladi.

– O‘quvchilarda badiiy obraz yaratish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. Tajriba asosida maqola, esse va hikoya yozish orqali badiiy obraz yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha samarali darslar va ishchi dasturlar ishlab chiqiladi.

– Natijalarni tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot yakunida olingan natijalar asosida o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish uchun tavsiyalar beriladi.

Ushbu vazifalar tadqiqotning sistematik va amaliy natijalarga yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi hamda o‘quvchilarda badiiy yozish ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi o‘quv qo‘llanmalari (Darsliklar).

Maqola, esse va hikoya yozish metodikasi, namuna va mashq materiallari. .-T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010,- 400 b.

2. “Yozuvchi bilan uchrashuvlar” (adabiyotshunoslik materiallari). T.: O‘qituvchi. 2010 y. 254-263 b.

3. Bahrom Rahim - "Ma'naviyat va adabiyot" (ilmiy maqolalar to‘plami). T. : Musiqqa. 2009.